

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK HARAKATIDAGI O'RNI

Sattorova Dildora

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) ning jadidchilik harakatidagi o'rni, uning pedagogik, ijtimoiy va siyosiy faoliyati, yangi usul maktablari ochishdagi xizmati hamda matbuot va dramaturgiya sohasidagi merosi tahlil qilinadi. Behbudiy faoliyati Turkiston xalqlarining milliy uyg'onishi va ma'rifat taraqqiyotida muhim bosqich bo'lgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, yangi usul maktablari, dramaturgiya, matbuot, ma'rifat. *M.Behbudiy, jadidchilik maktabi, "Padarkush" dramasi, "Til masalasi" maqolasi, "Kutubxonai Behbudiya", "Samarqand" gazetasi, siyosiy faoliyati, sayohatnomasi.*

Kirish

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi siyosiy va ijtimoiy jihatdan og'ir sharoitda edi. Mustamlakachilik siyosati, savodsizlik va iqtisodiy qoloqlik xalqning taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi. Shunday sharoitda millatni uyg'otuvchi, uni ilm-ma'rifatga yetaklovchi jadidchilik harakati maydonga keldi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati, ta'lim sohasidagi islohotlari va milliy matbuotdagi xizmatlari bilan tarixda muhim iz qoldirdi.

Asosiy qism

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqandda tug'ilgan. U diniy ta'lim olgan bo'lsa-da, zamonaviy fanlarga ham qiziqdi va yoshligidan turli ilmiy asarlarni o'rgandi. Uning dunyoqarashida zamonaviy bilimlarni egallash, millatni uyg'otish va ma'rifatni keng targ'ib qilish asosiy o'rin tutgan. Behbudiy musulmon Sharqining orqada qolish sabablarini chuqur anglab, ta'lim-tarbiya orqali jamiyatni o'zgartirishga intildi. Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi arboblardan biri sifatida Samarqandda yangi usul maktablari ochishga bosh-qosh bo'ldi. U maktablarda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot fanlarini o'qitish, ona tilida ta'lim berish va

darslarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etishni yo'lga qo'ydi. Behbudiyning pedagogik qarashlari yoshlarni faqat diniy bilim emas, balki dunyoviy bilimlar bilan ham qurollantirishni ko'zlagan. Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot sohasida ham faoliyat yuritdi. U 1913-yilda "Samarkand" gazetasi va keyinchalik "Oyna" jurnalini nashr eta boshladi. Bu nashrlarda u ta'lim-tarbiya, milliy uyg'onish, siyosiy mustaqillik, jamiyatni isloh qilish kabi mavzularda maqolalar chop etdi. "Oyna" jurnali Turkiston ijtimoiy hayotida katta ahamiyat kasb etib, yoshlarni ilm-ma'rifatga da'vat qiluvchi tribuna bo'ldi. Oyna" jurnalining faoliyatiga qaytadigan bo'lsak- "Oyna" tashkil etilgan kundan uning faoliyati va mazmunini boyitish to'g'risida turli- tuman maslahatlar jurnalning oxirgi soniga qadar yonma- yon ketdi. Ularda maqolalar hajmi ikki sahifadan oshmasligi, jurnal "qalinroq" bo'lishi va ko'proq chiqishini xoxlovchi talablar yangray boshladi. Quruq maslahatlar ko'p edi. Lekin jurnalning taraqqisi uchun amaliy ish qiladiganlar yo'q edi. Behbudiy bu istaklarni amalga oshirish uchun pul va ko'ngillilar yo'qligini, o'zining "kasal nimkora" holi bilan bu ishda ojizligini ochiq- oydin yozdi. "Oyna" ning asta-sekin darz ketayotganini so'ngi sonyalaridan ham payqash mumkin. Avval boshida Tavvallodan boshlangan yuz o'girishlar samarqandlik ziyolilarga ham o'tdi. Hoji Muin, Saidahmad Vasli Samarqandiy, Siddiqiy Ajziylar "Oyna"dan "Qalam"larini to'xtatdi. Jurnal Behbudiyning ilmiy maqola va she'rlari jamlangan to'plamga aylanib qolayotgan edi. Shu o'rinda Mirmuhsin Shermuhammedovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "...bizda yangi bir asar ko'rina boshlasa, 5-6 kun baqirib- chaqirib she'r va maqola yozarmiz, so'ngra charchagan kishi bo'lib o'z manfaatimizga bechora millatni qurbon qilib o'tiraveramiz. Shuning uchun bezim o'rtamizda matbuot e'tiborsizlanib boradur". Ushbu "Oyna" haqiqatdan ham xalq qalbiga umumiy yo'l topa olmagan. 1914-yil 52-sonidan keyin "Oyna" o'z faoliyatini to'xtatishga qaror qildi. Biroq idoraga kelgan ilotimoslar sabab 68-sonigacha davom etdi. 1915- yil 15-iyuldagi 68-sonidan "Oyna" to'xtatildi. Behbudiy o'z davrida dramaturgiya sohasida ham ijod qildi. Uning eng mashhur asari "Padarkush" pyesasi bo'lib, unda savodsizlik, johillik va ma'naviy qoloqlikning fojeali oqibatlari yoritilgan. Ushbu asar o'zbek dramaturgiyasida ilk realizm namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Pyesa xalq orasida keng tarqalib, ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. 1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan "Samarqand" gazetasini chqaradi. Gazeta turkiy va fors tillarida, haftada 2 marta, dastlab ikki, so'ng 4sahifada chop etilgan. 45ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishni to'xtagan. O'sha yilning 20- avgustidan u "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik mahalla asosan o'zbek tilida bo'lib unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, Ruscha e'lonlar ham berib boriladi... "Boshida haftada bir marta

ikkinchi yildan e'tiboran 15kunda bir qatla chiqib, 20oy chamasi davom qildi... Kavkas, Tatariston, Eron, Avg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqaladi... Jadidlarning sevimli jurnalari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevib o'qildi"-deb yozgan edi Ziyoy Said. Jurnal redaksiyasi muharirning yangi shahardagi uyida joylashgan. Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ulandi. "Nashriyoti Behbudiy" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning "Bayonoti sayohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi. O'sha davr vaqtli matbuotida "Behbudiy kutubxonasi" haqidagi xabarlar tez-tez duch kelasiz. Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining ideologlaridan biri sifatida millat uyg'onishida katta rol o'ynadi. U o'z maqolalarida xalqni ilm olishga, iqtisodiy mustaqillikka, zamonaviy hayotga intilishga chaqirdi. Behbudiy 1919-yilda Buxoroda qatl etilgan bo'lsa-da, uning g'oyalari va faoliyati keyingi avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining ilmiy-ma'rifiy, pedagogik, matbuot va dramaturgiya sohasidagi faoliyati bilan Turkiston jadidchilik harakatining eng yorqin namoyandalaridan biri sifatida tarixda muhurlandi. Uning ma'rifatparvarlik merosi bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Behbudiyning asarlari, ta'lim islohotlari va milliy uyg'onishdagi xizmatlari yoshlarni ilm va ma'rifat yo'liga undashda muhim ahamiyat kasb etadi. U Turkiston xalqini ruhlantirish maqsadida "Padarkush" drammasini yaratdi, bundan tashqari ko'pgina siyosiy harakatlarni amalga oshirdi. Rus mustamlakachiligiga faol qarshi harakatlar arafasida 45 yoshda vafot etdi. Shuning uchun ham u xalq orasida "Turkistondagi uyg'onish va yangilanish sardori", "Turkiston xalqining mexribon otasi" kabi nomlar bilan mashxurdir. Uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy olib borgan ishlari tufayli avlodlar qalbida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Padarkush. – Samarqand, 1913.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
3. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
4. Ziyoy A. Jadidchilik va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

5. Rashidov R. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadid maktablari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Abdurashidkhonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1994.